

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Mashg‘ulot va musobaqa faoliyati sharoitida “Sun’iy intellekt”ni qo‘llash orqali sportchilarning psixologik holatini korreksiyalash dasturiy ta’minotini yaratish  	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - “sun’iy intellekt”dan foydalangan holda diagnostika tizimini ilmiy asoslash, mashg‘ulot va musobaqa faoliyati sharoitida sportchilarda yuzaga keladigan psixologik holatlarni tuzatish usullari ishlab chiqiladi; - mashg‘ulot va musobaqa faoliyati sharoitida sportchilarni psixologik holatini diagnostika qilish usullari majmuasi ishlab chiqiladi; - kompleks nazorat qilish orqali sportchilarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda psixodiagnostika va psixokorreksiyaning informatsion mezonlari ishlab chiqiladi; - “sun’iy intellekt”ni o‘rgatish uchun sportchilarning psixologik holati tuzilishi algoritmlarini ishlab chiqiladi; - turli sport turlaridagi sportchilarni ilmiy-metodik ta’minlash dasturiga kompleks psixologik nazorat va psixokorreksiya “sun’iy intellekt” tizimini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish va joriy qilish: Tadqiqot natijalari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Sport vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.